

INTELLEKT

2023-YIL – “INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM” YILI

IJTIMOYIY-TA'LIMIY, MADANIY-MA'RIFIY GAZETA

2020-YIL 2-SENTABRDAN CHIQA BOSHLAGAN

2023-YIL 17-APREL № 1 (47)

E-MAIL: INTELEKTPRESS@UMAIL.UZ

YANGI O'ZBEKISTONNING HAR TOMONLAMA OBOD VA FAROVON MAMLAKATGA AYLANISHIDA MAS'ULMIZ



bag'ishlovchi shiddatli lokomotivi desak adashmagan bo'lamiz.

Mamlakatimiz kelajagi bo'lmish yoshlarga qaratilayotgan yuksak e'tiborni muhtaram yurtboshimizning olib borayotgan odilona siyosatida ham ko'rishimiz mumkin. Misol tariqasida gapiradigan bo'lsak, 11-aprel kuni yurtboshimiz tomonidan yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazgan videoselektor yig'ilishida erishilgan natijalar va endilikda amalga oshiriladigan istiqbolli rejalar to'g'risida so'z yuritildi.

Yoshlar tadbirkorligi uchun 4 trillion so'm kredit ajratilib, 150 mingta loyiha ishga tushgani, mamlakatimizda yoshlar uchun 325 mingta ish o'rni yaratilgani hamda 435 ming yoshlarning ish bilan bandligi ta'minlangani, shuningdek, 32 mingdan ziyod yoshlarga subsidiya berilib, ularga asbob-uskuna, mehnat qurollari ajratilgani shular jumlasidan.

Shuningdek, o'tgan o'quv yili 11 ta davlat oliygo'hrini 11 mingdan ziyod bitiruvchilaridan 6,5 ming nafari ishga joylashmagani, davlat granti asosida tahsil olgan 3 ming nafar talaba ham ishga kirmagani ham alohida ma'no qayd etildi.

O'tgan o'quv yilida Samarqand davlat chet tillar institutida talaba-yoshlarni ish

bilan ta'minlash va ularga ish o'rinlarini yaratib berish xususida to'xtaladigan bo'lsak, talabalarning sohalarga qiziqishlaridan kelib chiqib ularni ish bilan ta'minlash uchun tashkil etilgan institutdagi



Bandlik markazining xulosalariga ko'ra, talabalarning 843 nafari ishga muvofiq ekanligi aniqlangan.

Davomi 2-betda

DAVLAT TILIGA E'TIBOR – MILLATGA E'TIBOR

Mustaqillik yillarining dastlabki paytlari-dayoq jamiyatimizda bo'lgan yuz bergan o'zgarishlar natijasida tilimizda mavjud bo'lgan ayrim so'z va terminlar muomalaga qayta kirib kela boshladi. Bu davrda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi

nufuzi oshdi, ijtimoiy vazifasi va qo'llanish darajasi ancha kengaydi. Iste'molda bo'lgan juda ko'plab so'z va terminlar aslyi holatiga, ya'ni sharqona ifodasiga qaytarilishi borasida ancha ishlar qilindi. Ammo ba'zi bir ruscha-baynalmilal terminlari sharqona muqobilari bilan almashtirish yaxshi natija bermadi.

Masalan, gazeta – ro'znoma, jurnal – majalla, jariha, oynoma, institut – ilmgoh, oliygo'hr, bilimgo'hr, aeroport – tayyoraqoh, bandargoh, qo'nalg'a, rayon-nohiya, stadion – o'yingoh, fakultet – kulliyot kabilar. Vaholanki, bularning asosiy qismi tilimizga rus tili orqali kirib kelgan bo'lib, lug'at boyligimizda mustahkam o'rin olgan lotin, yunon, fransuz, ingliz

va boshqa g'arb tillariga xos so'z va terminlardir.

Ammo o'tgan o'ttiz yildan ortiq vaqt davomida "Davlat tili haqida"gi qonun talablari rioya etish hamda lotin alifbosini jamiyat hayotiga joriy etish borasida ancha sustkashlikka yo'l qo'yildi. Davlat tili bayrami nomigina 21-oktabr kuni Alisher Navoiy bobomiz haykaliga gul qo'yish va ona tilimiz qadri haqida nutq irod qilish, she'rlar o'qish hamda ommaviy axborot vositalarida chiqishlarni tashkil qilish va hokozalar bilan "xo'ja ko'rsinga" o'tkazilar edi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev "Davlat tili haqida" gi qonun qabul qilinganligining 30 yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqida bu masalaga alohida to'xtalib, o'zbek tilining nufuzi va mavqeyini yanada ko'tarish masalasiga alohida e'tibor berdilar. Vazirlar Mahkamasi huzurida Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzurida Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi tuzildi. Markazning barcha



viloyatlarda bo'linmalari tashkil etildi. Markaz va uning bo'linmalarida davlat tashkilotlari rahbar xodimlari uchun adabiy til me'yori va davlat tilida ish yuritish kurslari tashkil etildi. Muhtaram Prezidentimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2020-yil sentabr va 2021-yil fevral oylarida bo'lib o'tgan sessiyalarida o'zbek tilida nutq so'zladilar. Prezidentimizning ona tilimizga bo'lgan ehtiromi xalqimiz hamda chet ellardagi vatandoshlarimizning tilimizga bo'lgan e'tiborini yanada kuchaytirishga shukuh bag'ishladi.

Davomi 3-betda

AUDIO KITOBLARDAN FOYDALANISH QANCHALIK SAMARALI?

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishga juda katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz tomonidan O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida 5117-sonli qaroriga muvofiq oliy ta'lim sohasida o'z faoliyatini olib borayotgan o'qituvchilar uchun til bilish darajasi C1 bo'lishi tartibi belgilandi.

Shuningdek, hozirgi vaqtda yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari kundan kunga oshib bormoqda. Bugungi davr talabidan kelib chiqqan holda xorijiy tillarni o'qitishni bir qancha usullari paydo bo'ldi. Shulardan biri yoshlar

orasida keng foydalanilayotgan audio kitoblar hisoblanadi. Audio kitoblar 5-6 oylarga mo'ljallangan bo'lib, bu vaqt oraliqida o'quvchi kuniga 2 soatdan eshitish va o'qish mashqlarini bajarishadi. Oradan 6 oy o'tgach esa hech qanday so'z yodlashsiz, grammatik qoidalar o'rganmasdan o'zlar tanlagan xorijiy tilda erkin muloqot qila oladi deya qaralmoqda, audio kitob reklamlarida.



Davomi 2-betda

AMIR TEMUR DAVRIDAGI ILMIY MUHIT

Amir Temur hukmronligi davri o'zbek davlatchiligi tarixida katta o'rin tutgan davr edi. Ma'lumki, IX-XII asrlar Movarounnahrda ilm-fan, madaniyatning gullab-yashnashi mamlakatimiz tarixida ilk "Uyg'onish" (Renessans) davri bo'lgan bo'lsa, Temuriylar sulolasi hukmronlik qilgan davr ikkinchi uyg'onish davri ekanligi shubhasizdir. Sohibqiron hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning taraqqiyoti madaniy yuksalish uchun asos bo'ldi.

Amir Temur poytaxti Samarqandga turli yurtlardan

ko'plab olim-u fozillarni, mashoyix-u muhandislarni taklif etib, ularga homiylik qildi. Unga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan Ibn Arabshoh ham uning oilimga homiylik qilganini ta'kidlab o'tdi: "Temur oilimga mehribon bo'lib, sayyid-u shariflarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamolara va fozillarga to'la-to'kis izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko'rdirdi".

XV asrda uning Samarqanddagi saroyida Ma'sud as-Simnuniy, Muhammad as-Sog'urijiy, Tojurdin as-Sim-

noniy, Ahmad at-Tusiy, Sa'duddin Taftazoniy, Sayid Sharif Jo'rjoni, Shayx Shamsuddin Muhammad ibn al-Jazariy, Alovuddin Tabriziy, Jamoliddin Ahmad al-Marog'iy, Qozizoda Rumiy, Asix Xavofiy, Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Nazdiy, Ahmad ibn Muhammad ibn Arabshoh kabi fiqh, hadis, mantiq, tarix, adabiyot va san'at vakillaridan iborat ilmiy muhit vujudga keldi. Ushbu olimlarning ijodi samarasi bo'lgan yirik asarlar oradan olti asr o'tgan bo'lsada, hozirgi kundagi ilm-fan ravnaqi uchun o'z ahamiyatini yo'qotmagan.



Davomi 2-betda

YETMISH YIL ZINDONDA YOTGAN QO'LYOZMA



Yer yuzining sayqali deb nom olgan qadimiy shahar Samarqandga jahonning turli o'lkalaridan sayyohlar tashrif buyurib, tarixiy qadamlar, me'moriy obidalarini hayratlanib tomosha qiladilar. Noyob iste'dod sohibi, zulisonayin yozuvchi Sadriddin Ayniy yodgorlik uy-muzeyi shunday tarixiy-madaniy obidalardan biri hisoblanadi.

O'zbek adabiyotiga salmoqli hissa qo'shgan yozuvchining yodgorlik uy-muzeyi 1967-yil 19-mayda Sharof Rashidov tashabbusi bilan Sadriddin Ayniyning uy-muzeyi ochildi. Muzei yozuvchi ko'p yillar samarali ijodiy mehnat, faol ijtimoiy xayot va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borgan shaxsiy uyida joylashgan.

Davomi 2-betda

ONA TILIMIZNING JOZIBASINI BEGONA OSMON OSTIDA ESHITGANIMIZDAGINA HIS QILAMIZ

"Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kerak emas" – deya ta'rif bergan o'zbek adabiyotining ulkan namoyondasi Abdulla Qahhor. Shubhasiz, adabiyot insonni tarbiyalaydi, uyg'onmagan tuyg'ularni uyg'otishga qodir. Unda badiiy adabiyotning mohiyati, adabiy tur va janrlar, badiiy obraz va obrazlilik, she'r tizimlari, badiiy tasvir va ifoda vositalari kabi adabiy hamda nazariy tushunchalar o'rgatilib boriladi.

"Adabiyot – fikr, tuyg'ularimizdagi to'liqlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'liqlarni yaratmoqdir. Bu ta'rif adabiyotning to'g'ri ta'rifidir. Shu bilan yozilgan asarlarga adabiy asar deyiladi" – deb fikr yuritgan Fitrat. Adabiyot qaqrab yotgan dillarga bamisoli hayot suvini olib kiradi. U orqali insonlarning go'zallikka muhtoj qalbi oziqlanadi.



Davomi 2-betda

ta'limidagi muammolar hal etilar ekan, shundagina maqsadga erishiladi. Chunki ta'lim bo'yicha bizda yetarlicha muammolar bor.

Ya'ni, o'quvchilarning darsda mobil qurilmalardan foydalanishi, ularni jismoniy mehnatga majburan jalb etish va o'qituvchilarning darsda e'tiborsizligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ularni bartaraf etish afsuski bir kishiga bog'liq emas.

Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, birinchi o'rinda maktab yoshidagi o'quvchilarga ko'proq amaliy mashg'ulotlar o'tish, ularga kelgusida o'qishi yuzasidan oliy ta'lim muassasalari haqida so'zlash va dars jarayonlarini hayotiy voqealar bilan bog'lagan holda suhbatlarni tashkil etish lozim.

Davomi 2-betda

XXI ASR VABOSI

Hozirgi kunda yoshlarni dangasalik va nadomat o'rasi tomon yetaklayotgan XXI asr vabosi bu – telefondir. Nega biz ajdodlarimizga mos avlod bo'lib yetishmayotganimiz, erta ajrimlar, qimmatli umrning behuda sovrulishi va shu kabi muammolarga hozir oydinlik kiritamiz.

Hozirgi yosh avlodning aksariyati mutlaqo boshqa yo'lda. Ertalabdan kechgacha turli-xil ijtimoiy tarmoqlarda, bu ham yetmagandek mobil o'yinlar bilan vaqt deb atalmish tiklanmas ne'matni isrof qilayotgan yoshlarimiz talaygina. Ilmga chanqoq o'z ustida tinimsiz ishlovchi va teran fikrlovchi yoshlar soni kamayib bormoqda.

Bularning barchasiga mobil telefonlar va beparvo ota-onalar sababchi desak, mubolag'ga emas. Nega ota-onalarimiz bizga vaqt ajratmayapti, bizlar bilan fikr-mulohaza almashishmaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirda onalar farzandi bilan kun davomida 30, otalar esa 12 daqiqa suhbat-

lashar ekan. Bu esa o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, ular ham bu matohga qaram bo'lib qolgan, bizningcha.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, yosh juftliklarning e'tiborsizligi va bir-birini tushunmasligi hamda turli-xil kelishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi asosiy sababchi ham bu – mobil qurilmalar. Bejizga yoshi ulug'lar "Telfon chiqdi – balo chiqdi" deyishmagan. Android Headlines portali oddiy foydalanuvchilarning smartfon ishlatishi borasida tadqiqot o'tkazdi, natijalar e'lon qilindi. So'rovnomada 18 dan oshgan 1000 nafar amerikalik yoshlar ishtirok etgan. Yakuniy natija esa ularning o'rtaacha ko'rsatkichi asosida olingan.

1. Kishilar smartfonga kuniga 262 marta qarashadi.

2. Odamlar bir sutkada 3 soat-u 19 daqiqani smartfonga bag'ishlashadi.

Davomi 3-betda

SIFATLI TA'LIMGA QANDAY ERISHILADI?

Biz yoshlarning birdan bir maqsadimiz bilim olish va O'zbekistonning rivojlanishiga o'z hissamizni qo'shishdir. Shu xususida gap ketar ekan, avvalo, hammasi sifatli ta'limga borib taqaladi. Qachonki, ta'lim darajasi yaxshi bo'lsa, shu mamlakatda rivojlanish ko'rsatkichi yuqori bo'ladi.

Jamiyatning bo'g'ini oila hisoblansa, ta'limning ildizi bog'chadan boshlanadi. So'nggi yillarda yurtboshimiz tomonidan sifatli ta'limga erishish borasida qator islohotlar qilinmoqda. Shuni ham aytib o'tish joizki, qator axborot kommunikatsiyalaridan foydalangan holda hamma ma'lumotlarni masofaviy bilish va baholash tizimini rivojlantirib, barcha sohalarda raqamlashmoqda.

Ta'lim nazorati deganda, avvalo, nima tushuniladi? Qachonki, oliy ta'lim va xalq



YANGI O'ZBEKISTONNING HAR TOMONLAMA OBOD VA FAROVON MAMLAKATGA AYLANISHIDA MAS'ULMIZ

Boshlanishi 1-betda

Bandlik markazining xulosalariga ko'ra, talabalarining 843 nafari ishga muhtoj ekanligi aniqlangan. Shuningdek, ushbu talabalar institutining hamkorlik doirasidagi sohalar, ya'ni ta'lim, xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarish, turizm kabi sohalariga ishga joylashtirilgan.

Samarqand davlat chet tillar instituti xorijiy oliygo'har bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish borasida mintaqada yetakchi oliygo'har bo'lib, bugungi kunda qadar 100 ga yaqin nufuzli xorijiy oliygo'har bilan xalqaro hamkorlik aloqalari davom ettirilib kelimoqda.

Talabalarimizni ish bilan ta'minlash borasida xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda ishlar qilinadi. Masalan, talabalarimizni ish bilan ta'minlash maqsadida Germaniyadagi "The Simson Private Academy" va "Globalconsal" bandlik firmalari bilan birgalikda nemis tili bo'yicha kamida B1 xalqaro til bilish darajasiga ega bo'lgan yosh bitiruvchilarni birinchi navbatda amaliyotga



va undan so'ng ish bilan ta'minlash borasida kelishuvga erishganmiz.

Hamkorlarimiz biz yuborgan nomzodlarni 3 oy o'qitib, barcha yo'l haqi, yotoq joy va 3 mahal ovqatlanish hamda 1000-1800 yevro atrofida oylik maoshi bilan ta'minlaydi. Bu bo'yicha biz muntazam amaliy ishlarni davom ettirib kelyapmiz.

Yig'ilishda davlat rahbari yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha ham yangi tizim yaratilishini va chet tilini o'qitishga e'tibor tufayli xususiy til markazlari soni 6 mingdan ortganligi hamda bugungi kunda 1,5 million yoshlarimiz bo'sh vaqtini chet tilini o'rganishga bag'ishlayotganligini aytib o'tildi.

Guvohi bo'lganimizdek, xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishiga bo'lgan qiziqishini oshirish borasida ham qator ishlar qilinmoqda.

Xorijiy tillarni o'qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklari ta'limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish hamda o'qituvchilarda zamonaviy o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirish borasida institutimizda ham salmoqli ishlar qilinmoqda.

Jumladan, maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini yanada oshirish maqsadida institutimizda bugungi kunda 6 ta til o'qitish markazlari faoliyat yuritmoqda. Markazlarda yiliga 2500 dan ortiq abituriyentlar chet tillarga o'qitilmoqda. Endilikda markazlardagi abituriyentlar sonini 5000 nafargacha yetkazish rejimizda bor.

Ta'kidlash joiz, xorijiy tillarni o'qitishni yanada ommalashtirish maqsadida Samarqand viloyatidagi 9 ta kollej va texnikumlarda ham nemis tili o'quv kurslarining o'qitilishini yo'lga qo'ydik. Bunda o'quvchilar darsdan tashqari holatda har bir guruh 15 nafar o'quvchidan oshmagan holda o'quv jarayonlari tashkil etiladi.

Ahamiyatli, ushbu texnikumlarda tashkil etilgan o'quv kurslariga Samarqand davlat chet tillar institutining malakali hamda xalqaro til bilish darajasi C1 bo'lgan professor-o'qituvchilar hamda xalqaro til bilish darajasi C1 bo'lgan professor-o'qituvchilar jalb etiladi. Bu borada o'quv va fan dasturlari ishlab chiqildi, xorijdan maxsus darsliklar va adabiyotlar keltirildi. Nemis tilini o'qitish kurslariga o'quvchilar A1 darajadan qabul qilinadi va B2 darajaga ega bo'lgunga qadar tayyorlanadi va bu jarayon muntazam davom etadi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchi yoshlarga xorijiy tili mukammal o'rgatish bilan bir qatorda Germaniyada ish bilan ta'minlashdir.

Videoselektor yig'ilishida muhim va asosiy masalalar e'tibor markazida bo'ldi. Misol uchun "Yoshlar daftari"da turadigan talabalarga yanada keng imkoniyatlar yaratilishi, ularni kasb-hunarga, tadbirkorlikka o'rgatish va bandligini ta'minlash, "Yoshlar daftari" jamg'armalari mablag'ining kamida 40 foizi aynan kasb-hunarga o'qitishga yo'naltirilishi hamda 53 ming nafar ehtiyojmand talabalar o'qish uchun kontrakt pullari to'langani, 81 ming talabaga uy-joy ijara to'lovi ajratildi, jumladan, "Yoshlar daftari" orqali 300 ming yoshlarga qariyb 600 milliard so'mlik yordam ko'rsatilgani shular jumlasidandir.

Talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishda ko'maklashish, ularning o'qishdan tashqari vaqtlarini samarali tashkil etish maqsadida

xorijiy tillarni o'rgatish o'quv kurslari hamda ijodiy to'garaklariga jalb etish, shuningdek, talabalarining ayrim toifalari, ya'ni "Temir daftari", "Yoshlar daftari" hamda yetim, chin yetim yordamga ehtiyoji bo'lgan talabalarini aniqlab, ularga ijtimoiy, psixologik va moddiy tomondan ko'mak berishni tashkil etish asosiy vazifamizdir.

Shu boisdan institutda tahsil oladigan ijtimoiy himoyaga muhtoj, moddiy yordamga ehtiyoji bor hamda "Yoshlar daftari", "Temir daftari"da turadigan talabalarimizni rag'batlantirish, shuningdek, ularga imkoniyat darajasida ko'mak berish va bandligini ta'minlash borasida salmoqli ishlarni amalga oshirdik.

2021/2022 o'quv yilida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan talabalar ro'yxati shakllantirilib, ularning yashash joylaridagi hokimliklarga yuborildi. Shundan, Samarqand viloyat hokimligi tomonidan 11 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarga jami 78 million 443 ming 560 so'm, Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan esa 39 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarga 273 million 204 ming 453 so'm miqdoridagi to'lov-kontrakt mablag'lari to'lab berildi.

2022/2023 o'quv yiliga e'tibor qaratilgan bo'lsa, "Yoshlar daftari"da ro'yxatdagi turadigan talabalarimizning jami 19 nafariga 37 million 871 ming miqdorida kontrakt to'lovlari institutimiz tomonidan to'lab berildi. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan talabalarimizning jami 71 nafariga 36 million 769 ming 500 so'm miqdorida moddiy yordam berish ishlari amalga oshirildi.

So'nggi yillar davomida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni komil ishon sifatida yetish uchun zamin yaratilmoqda. Yoshlarga berilayotgan bu e'tibor, kelgusida, albatta, o'z mevasini beradi.



Mazkur islohotlarning samarasi o'laroq kelajagimiz bunday yoshlar qo'lida porloq bo'lishiga hech shubha yo'l. Chunki aynan bugungi yoshlar ertangi kunimizning, Yangi O'zbekistonning, Uchinchi Renessansning poydevonidir.

Shu o'rinda ta'kidlashimiz kerakki, Prezidentimizning "Necha-necha ajdodlarimiz orzu-niyat qilib o'tgan mana shunday buyuk ishlarni amalga oshirish bugun bizga nasib etgan ekan, bu o'zligini anglagan har bir vatandoshimiz uchun chinakam baxt va sharaf emasmi?", degan fikrlari bugungi kunda islohotlar shiddat bilan ketayotgan yurtda ishlash va yashash yanada yoqimli va totli ekanligini his etasan kishi.

Xulosa qiladigan bo'lsa, Prezidentimizning "Yangi O'zbekiston demokratiya o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanoqda" deya aytgan gaplari barcha yurtdoshlarimizni o'z



Vatani uchun nima qilishi kerakligini anglashiga, Yangi O'zbekistonni har tomonlama o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanoqda o'z hissalarini qo'shishiga xizmat qiladi.

Ilhomjon TO'XTASINOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti rektori, professor.

AUDIO KITOBLARDAN FOYDALANISH QANCHALIK SAMARALI?

Xo'sh, bu ma'lumotlar qanchalik to'g'ri? Haqiqatdan ham, hech qanday grammatik qoidalarsiz, so'z yodlashlarsiz xorijiy tillarni o'rgansa bo'ladi-mi? Bu usulda til o'rganish barcha uchun birdek natija ko'rsata oladimi? Albatta, bu kabi savollarga javob topish mushkul. Hozirgi kunda mamlakatimizda ana shunday audio kitoblardan bir qanchasi o'quvchilar orasida keng foydalanilmoqda. Ulardan biri "Booknomy" brendi ostidagi audio kitoblardan sanaladi.

"Booknomy" audio kitoblari 2017-yildan buyon nashr etilib kelmoqda. intensiv darslarning qat'iy talab qilinadigan oddiy 4 qoidasi mavjud bo'lib, bular quyidagilardir: 1-tushunib eshitish va kuzatish, 2-kamida 2 yarim soat eshitish, 3-berilgan har bir darsni kamida 7 kun eshitish, 4-sakrab o'tmaslik.

Har bir inson yangi til, ya'ni xorijiy tillarni o'rganishni boshlashdan oldin qaysi o'qitish usuli yohud metodi orqali o'rgansa, ko'proq samaraliroq bo'lishini aniqlab olishi kerak. Til o'rganishda qilinadigan eng katta xato bu tilni noto'g'ri o'rganishdir. Chunki biz tilni xatoliklar bilan o'rganishni boshlasak, keyinchalik har bir o'rganigan narsamizda xatoliklar, kamchiliklar bo'ladi va biz xatolar qilishga odatlanib qolamiz.

Hozirgi rivojlanib borayotgan davrda

o'qitishning ko'plab zamonaviy innovatsion metodlari ishlab chiqilmoqda o'quvchilarning o'z darajalaridan kelib chiqqan holda darslar o'qitilmoqda. Har bir o'qituvchining dars o'tish usuli turli xil, shu boisdan, o'quvchilar o'zlariga istagan o'qituvchilardan ta'lim olish huquqiga ham ega bo'lishmoqda.

Albatta, o'qituvchi bola bilan ishlashi juda ham katta ahamiyatga ega. O'qituvchilar bizga eng o'nggi metodlar orqali darslarni tushuntirishadi va bu bizga tilni tezroq va samaraliroq o'rganishga yordam beradi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, inson bilmay qolgan narsasini so'rashi kerak. Axir, xalqimizda bir ajoyib maqol bor: "Bilmaganni so'rab o'rganing - olim, orlanib so'ramagan o'ziga - zolim".

Shunday ekan inson bilmay qolishdan emas, bilmagani narsasini o'rganmay qolishdan qo'rqishi kerak. Men bu fikrlarim bilan audio kitoblardan foydalanish samarasiz demochi emasman, aksincha audio kitoblar ham til o'rganishda yordam beradi. Faqat siz audio kitoblar yordamida faqatgina A1 yoki A2 darajaga erishishingiz mumkin. Ammo bu darajalar bilan yuqori natijalarga erishish juda qiyin.


Jasmina MALIKOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

AMIR TEMUR DAVRIDAGI ILMY MUHIT

Boshlanishi 1-betda

Ushbu allomalardan Sayyid Sharif Jo'roniy falsafa va mantiq ilimida mashhur bo'lib, Astrobod yaqinidagi Tog'u qishlog'ida tug'ilgan. O'z davrining atoqli olimi Qutbiddin ar-Roziy at-Taxtoniydan ta'lim olgan, 1387-yilda Temur Sherozni zabt etgach, Samarqandga keltirilgan. Fiqh, falsafa va mantiqqa oid ko'plab asarlar yozgan va ushbu yo'nalishlarga oid kitoblarga sharhlar keltirgan.

Temur devoni arboblaridan biri Tojiddin as-Salmoniy bo'lib, akademik Bartolidd tomonidan "Shohrux anonimi" deb atalgan asar as-Salmoniyning ekanligini nemis olimi V.Hins aniqlagan.



Temur va uning avlodlari adabiyot va san'atga, ilm-fanga yaqin kishilar edi. Temuriylardan 22 ta ijodkor-shoir bo'lib, ular o'zlariga she'r yozish bilan birga ijodkorlarga hamiylik ham qilgan. Xalil Sulton, Husayn Boyqaro kabilar o'z she'rilaridan devon tuzganlar.

XV asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotining eng rivojlangan davri bo'lib, bu yuksalish Temuriy Boyqaro va o'zbek adabiyotining porloq quyoshi Navoiy nomlari bilan bog'liq. Boyqaro hukmronligi davrida adabiyot, san'at va fanning ko'p sohalar rivojiga katta ahamiyat bergan. «Husayniy» taxallusi bilan she'rilar yozgan, bu ulug' zot o'z hukmronligi davomida Navoiyga «muqarrabi hazrat sultoniy» unvonini berib, birgalikda madaniyatning rivojlanishiga homiylik qilishgan.

Navoiy ustози Jomiy bilan hamkorlikda ma'naviyat taraqqiyotiga rahnamolik qildi. Uning timsolda badiiy adabiyot eng buyuk yutuqlarga erishdi. Navoiyning «Xamsa» va «Xazoyinul-maoniyy» devoni, Jomiyning «hasht avrang» va she'riy devonlari shu davr adabiyotining eng buyuk namunalar bo'ldi. Husayn Boyqaro o'z «Risolasida» uning hukmronligi davrida shunday asarlar yaratilganidan cheksiz faxrlanganini bejiz emas.

ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mixond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvir, ko'plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me'morlarning shuhrati dunyoga yo'yildi. Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg'or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo'lgani barchamizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyatga eng katta hissa qo'shganlar sulolalardandir. Amir Temur hukmronlik qilgan davlarda davlatning markaziy ma'muriyati boshida devon-begi, arkebi va to'rt vazir tuzilgan. Vazirlar so'zlar yig'ish, meros ishlari, askarlar maoshi va ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash, saroy xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarjantlar.

Aziza QAXRAMONOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

YETMISH YIL ZINDONDA YOTGAN QO'LYOZMA

ko'rish kerak. Boshqa xonalarda esa qiziqarli ko'rgazmali vositalar joylashtirilgan. Har yili 15-aprelda bu yerda olimlar, yozuvchi va shoirlar, talabalar va o'quvchilar, adabiyot shinvandallari hamda Ayniy ijodining muxlisilari to'planib ilm-odob majlisini tashkil etadilar. Ular ustozning boy kitoblar va yodgorliklaridan foydalanib kelishmoqdalar. Uning hovlisida Sadriddin Ayniyning o'zi ekan daraxtlar o'sadi, ular olma (yozuvchining eng sevimli mevasi), shaftoli va uzum daraxtidir.

Sadriddin Ayniy taniqli yozuvchilar Abdulla Qodiriy, G'ofur G'ulom, Oybek va boshqalar bilan yaqindan hamkorlik qilgan bo'lsa, M.Tursunzoda, Sh.Rashidov, H.Olimjon, A.Dehotiy, S.Ulug'zoda, R.Xoshim, X.Mirzozoda, I.Akram, S.Nazar, K.Qahhorova kabi shogirdlari bilan uning

xonadoni doimo gavjum bo'lardi. Muzeining eksponatlari qatoridan Sadriddin Ayniyning turli davrlarda nashr etilgan kitoblari joy olgan. Ulardan biri 2005-yilda Dushanbe shahrida nashr etilgan «Buxoroda fikriy inqilob tarixi» asaridir. Kitobni Sadriddin Ayniyning o'g'li Kamoliddin Ayniy nashrga tayyorlagan. Asarning so'zbohisiga «Yetmish yil zindonda yotgan qo'lyozma» deya sarlavha qo'yilgan. Chunki uning yaratilishidan to'choq etilishigacha bo'lgan vaqtni alohida bir tarix desha ham bo'ladi.

Sadriddin Ayniy 1920-yilda «Buxoroda fikriy inqilob tarixi» nomli kitobini yozib tugatib, qo'lyozmalarni chop etish uchun nashriyotga yuboradi. Ammo kitobidan darak bo'lmagach, yozuvchi nashriyotga ham yozib kitob chiqmayotganini sababini

birida ishlayotgan Sadriddin Ayniyning shogirdidan biri qo'lyozmani topib beradi. Bu qo'lyozma mustaqillik sharofati ila yetmish yillik zindondan so'ng ozodlikka chiqadi. Bu «Buxoroda fikriy inqilob tarixi» ya'ni Ayniy «Esdaliklar»ining beshinchi qismi bo'lib qoldi.

Sadriddin Ayniy asarlari 28 ta uyun tillariga tarjima qilingan. Uy-muzeyga ustozning hayoti va ijodiy faoliyati to'g'risida ma'lumot beruvchi ikki mingdan oshiq gazeta-jurnallar, suratlar, hujjatlar va kitoblar jamlangan.

Atoqli adibning uy-muzeyiga men va talabalarim birgalikda bordik hamda uy-muzeyning direktori Amriddin Po'latov ishtirokida uy-muzeyi xodimlari bilan suhbatlashib, ulardan kerakli va muhim ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Zarina EGAMBERDIYEVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

SIFATLI TA'LIMGA QANDAY ERISHILADI?

Jumladan, hozirda ham ayrim talabalar kredit-modul tizimi nima ekanligini bilishmaydi, ushbu tizim amaliyotga tadbiiq etilganiga bir necha yil bo'lgan bo'lsa ham. Agar shu tizim haqida umumiy o'rta ta'lim davrindan tushuntirilsa, batafsil axborot berilsa, bu borada ko'proq ochiq eshiklar tadbirlari tashkil etilsa, yaxshi bo'lar edi. Yoshlar bilan ishlash ko'nikmasini oshirish uchun yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyati bilan qiziqishiga yo'nalish ko'rsatish va professional tarzda ta'limga tayyorlash maqsadga muvofiq, bizningchamiz.



ishlash talab etiladi. Ta'lim sifatini oshirish uchun xorij tajribasini o'rganish va amalda tadbiiq etishni samarali yo'l deb bilamiz.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi ta'lim tizimida bo'layotgan muammolarni birlashtirish holda yechimini topish va ota-onalarni ham bunga jalb etish lozim.

Fotima SAYFIYEVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

Har bir millatning o'tmishi, o'zligi, urf-odatlari, kechinmalari milliy adabiyotida gavdalanadi. Har qaysi xalqning so'z boyligi, til imkoniyatlari esa uning adabiyotida aks etadi. Shu boisdan ham til va adabiyot bir-biriga uzviy bog'liqdir. Til har bir millat madaniyatining o'zagi va ko'zguisi, uning haqiqiy chashmasidir. Tilning Onaga qiyoslanishi bejiz emas, inson o'z onasini ko'rmasdan, uning sof muhabbatini, mehriini tuymasdan yashay olishi mumkin emas.

Misol qiladigan bo'lsa, o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi bo'lgan Alisher Navoiy bobomiz G'arb davlatlarida chig'atoy, ya'ni adabiyotning buyuk vakili deb qaralsa, Sharqda esa "Nizomiy millati va dini" unvoni bilan ulug'langan. U kishining ijodiy bamisoli cheksiz bir ummon, ushbu ummonga qancha chuqurroq sho'ng'isangiz, shuncha ko'p inju terasiz. Go'yo kamon o'qi qo'zg'aldi-yu, adabiyot sahifalariga nur kirgandek bo'lgan adibimiz til haqida shunday deydi: "Til shirinligi ko'ngilga yoqimlidir,

muloyimligi esa foydali. Chuchuk til achchiq tilga aylansa, ko'pchilikka zarari tegadi; qandand mayi tayyorlansa, xarom bo'ladi. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totlidir; bolalar uchun muloyim tabiiati odam xolvafurush kabi sevimlidir" - deya ta'riflaydi. Adabiyot sahnasiga go'zal qadamlar ila, rus xalq qo'shiqlari hamda ertaklarini yaxshi bilgan enagasi Arina Rodinovaning

ONA TILIMIZNING JOZIBASINI BEGONA OSMON OSTIDA ESHITGANIMIZDAGINA HIS QILAMIZ

ta'sirida kirib kelgan yangi rus adabiyotining asoschisi, dramaturg va nasr yozuvchisi Aleksandr Sergeyevich Pushkin til haqida shunday deydi: "O'qimgan, mahoratsiz, yozuvchilar qalam ostidagi go'zal tilimiz shiddat bilan tanazzulga yuz tutmoqda. So'zlar buzilgan. Grammatika o'zgarib turadi. Imlo, tilning bu Geraldikasi har kimning va har kimsaning o'zboshimchiligi qarab o'zgaradi" - deya o'z fikrlarini bayon etadi.

Mashhur britaniyalik dramaturg, qolaversa, ingliz teatrlarida uning pyessalaridan faqat Shekspirning pyessalari ommaaviyroq bo'lgan, u o'zining bahsli qarashlari bilan ham tanilgan George Bernard Shaw til to'g'risida shunday deydi: "Ona tilimizning jozibasini begona osmon ostida eshitganimizdagina his qilamiz" kabi ta'riflarini aytib o'tadi. Qadimgi yunon tarixchisi

kesmaysiz, tilni yaxshi bilmasangiz, hamma uchun chiroyli va tushunarli yozolmaysiz" - deya ta'riflaydi. O'zbek adabiyotining ulkan namoyondasi, o'zbek roman-chiligining asoschisi Abdulla Qodiriy shunday deydi: "O'zbek tili kambag'al til emas, balki o'zbek tilini kambag'al til deganlarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasin"

degan g'oyani ilgari suradi. Ha, albatta, yuqorida ko'rsatilib o'tilgan har bir fikr o'ziga mos ravishda, chuqur ma'no kasb etadi. Adiblarimizning barcha so'zlar oltindan qimmat desak, adashmagan bo'lami. O'zbek xalqining buyuk ma'rifatparvari Abdulla Avloniy "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadigan o'ynali hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir" deganlarida nechog'li haq ekan. U o'sha paytda

Jasmina ADBUJALILOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

NAVOIY (NOVEL)

ILK BOR O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA

ILHOMJON TO'XTASINOV, SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI REKTORI, PROFESSOR

(Davomi. Boshlanishi oldingi sonlarda)

Warlike lords were eagerly awaiting the heady days of the battle. Sometimes the enemies organized some entertainment for them. At night, in the deep darkness of the gate, hundreds of heroes went out and like a black storm flew to the camp. Cries tore through the night. It was short but merciless fight. It took a little time and the remnants of the enemy unit disappeared in huge fortified gate.

Togonbek was restless. That was when it seemed to him that the hour has come for quite a feat, such a feat, to which all trials will pale the Barlos haughty lords.

Togonbek with inexhaustible energy was preparing to storm the fortress. He taught jigits how to make high scaling ladders. Selecting the group of nimble fellows, one night he ordered to go to different places to put the ladders to the fortress wall. Horsemen with swords, spears, bows and arrows, some were even wearing armor - boldly climbed the walls. Excited shouts were heard in the fortress. Climbing horsemen were thrown down.

But that did not stop Togonbek. Day and night in the most unexpected places, he, acting with unusual alacrity, again and again attacked the fortress.

The siege lasted for eighteen months. They were used to all known methods of siege, but to no avail. Both sides showed the same courage and dedication of the sons of the nation, subordinate to two sovereigns, not inferior to each other in valor.

Husayn Boyqaro was possessed by despair. Hearing that Badiuzzamon who was defeated by Husravshoh, was sent to Kunduz, the Sultan Husayn finally lost his faith in success of the campaign. Precipitated Hissar endured cruel suffering. Both parties were aware of each other. At such moments, the thought of the world

appears as if by itself.

To soften the mutual hostility or cover up their failure, Husayn Boyqaro expressed his desire to intermarry with the enemy. The envoys of both sides met and agreed. Husayn Boyqaro took his daughter to marry Sultan Mahmud, the father of Haydar Mirza. After the wedding festivities, the sultan with his army hurried away from Hissar to Balkh.

Husayn Boyqaro decided to leave Badiuzzamon in Balkh, appointing him the governor of the city. Subservient Badiuzzamon intended to give Astrabad to his favorite son Muzaffar Mirza. Such was the desire of the beloved wife of the sovereign - Khadichabegim. Sultan Husayn consulted about this with Nizomumulk, the first vizier, wishing to curry favor with the Khadichabegim endorsed the intention of the sovereign.

Badiuzzamon agreed to take the place of the governor of Balkh, but asked to give Astrabad to his young son Mumin Mirza. This began whispering in corners. Togonbek inspired Muzaffar Mirza:

- We could not conquer the Hissar fortress, but now it's time to grab an iron fortress of your happiness, your future. Do not sit idly by, Prince!

Muzaffar Mirza firmly told his father about his demands.

Husayn Boyqaro arranged a solemn meeting with the participation of all lords, senior officials and confidants. Calling Badiuzzamon and Muzaffar Mirza, he announced his decision, and, according to tradition, demanded from them «expressions» humility and then he put a robe on Muzaffar Mirza embroidered with gold.

Badiuzzamon saw the actions of his father's injustice and considered himself disgraced.


Leaving Balkh, Husayn Boyqaro

headed to the capital. Badiuzzamon, solemnly escorting his father sent a letter to Astrabad, where he ordered to his son not to let Muzaffar Mirza to enter Astrabad and, if necessary, to show him an armed resistance.

CHAPTER XXXIII

I

Being weary with a march, Husayn Boyqaro dreamed about resting in Heart, where there were calm cheerful life of



music and wine, singing ghazals in his love for beautiful women. But according to the verdict of fate, the star of his happiness disappeared behind the clouds. In the capital, the news about Badiuzzamon gathering strength began to come one after another, there was a rebellion. He heavily influenced his elder father.

When the external enemy entered the earth, Sultan Husayn mutiny was not just

upset but angry, strongly and persistently preparing to march. But Badiuzzamon, his eldest son, was his heir. Was it possible to meet with him on the battlefield? This thought was a decision of life for the sultan. He invited Alisher and told what had happened, expecting for a wise advice. Alisher was also upset. It is a pity that Badiuzzamon did not obey his sincere advice. What to do now? Alisher was deep in thoughts.

The man who has ruled in Khorasan for nearly thirty years was sitting here and nearly for thirty years the poet was close to the sovereign. Navoiy knew all his weaknesses, his flaws. The sultan often acted unreasonably, insidiously. The poet himself has undergone a lot of resentment from him and injustices. At times he hated the sultan and cursed him. However, Husayn Boyqaro for almost three decades conserved power. During this time, a lot of enemies eyed to Khorasan. One never knows that today conspirators, burning with the desire to tear apart Khorasan, divide it into regions or Khanates. The mighty will of the sovereign hunched, powerful arms that firmly restrained before the horse and sword slashed valiantly, they were trembling. Yet now he was ready to defend his state from any enemy, wherever it may appear. He still was the most reliable, though shaken, raft state? Perhaps Badiuzzamon will unseat his father from the throne when he gets hold of him, but if it happens, at least ten of the fourteen princes like loose rabid dogs rush into a fight and claw each other's throats.

- It is necessary to prevent a disaster in the state, - said Navoiy.

- How? - dejectedly asked the sultan. - Give sensible advice.

- Reasonable advice is, - said Navoiy, - we still have time to make an attempt to appeal to the conscience mind of Badiuzzamon. Try to awaken love and trust in his

heart.

After a pause, Navoiy continued:

- It is necessary to forget past grievances and strengthen sincere friendship, love and loyalty.

- So, do not we need to fight?

- It is not necessary, - said Navoiy. - Neither party is fighting for the truth, on the contrary, all these feuds are the fruit of competition and ignorance. Hence, shedding a drop of blood is a great crime.

- I did not think of shedding the blood, - said Husayn Boyqaro. - But what if an unworthy son does not understand our good desires?

- If the son cannot conceive of love and affection, the duty of the father hit him with a stick on his neck, - said Navoiy.

Husayn Boyqaro's relief rose. After a brief pause, he asked Navoiy to assume the mediation. Navoiy replied without hesitation:

- To do this good deed, your humble servant will not retreat before any difficulties.

II

The sultan's decision to extinguish the insurgency through peaceful negotiations immediately became known everywhere. Some courtiers and nobles grieved: they expected to warm up by the fire of civil strife, standing at the head of the discontented vizier Nizomumulk and Togonbek. Nizam al-Mulk was most frightened by Navoiy's role in this matter. He feared that the Sultan, who would be grateful for the fulfillment of an important assignment by the poet, would again bring him to the coach.

Togonbek did not want a reconciliation with the son of the sultan for some other reasons as well. He intended to go to Muzaffar Mirza in Astrabad and there finally

realize their long conceived plans. Badiuzzamon today or tomorrow will make up with Muzaffar Mirza and the disorder in the country will increase, the storm will dump the old feuds of Husayn Boyqaro, punishment will be as rotten wood. It was then that he, Togonbek, will give to Muzaffar Mirza the throne and send the rook into the desired state for themselves.

On the day of departure from Herat Navoiy and Togonbek went to Nizomumulk. Sons of vizier - Kemal al-Din Husayn and Amid- al-Mulk - respectfully held them to the guest room and offered the seats on a velvet cushion. Next to these fine, educated young people Togonbek felt uncomfortable. Kamal al-Din Husayn whose voice was as enjoyable as a flute, spoke about various subjects. He was so funny talking about some trifle that Togonbek involuntarily laughed. When the elder brother paused, the junior one tried to get Togonbek to talk about military affairs. Togonbek answered abruptly: he eagerly looked from the door, the window. At this time, Nizomumulk went into the room in dimensional steps. He greeted the guests and majestically, like in the couch cushions, had his seat. Togonbek was shied to talk with sons of vizier. Nizomumulk apparently realized this and began to talk, as if to reassure the guest.

- Today we sent Mr. Navoiy to Balkh, - he said, stroking his thick beard.

- We wish him success, - said sarcastically Togonbek. - Of course he will be able to lead one thousand and one arguments in proof of his words and assure the prince. I do not doubt about it.

- Alisher Navoiy, - said Nizomumulk, considering the decorations of his embroidered robe, - loves Badiuzzamon, Mirza's father. He, of course, is able to influence on the prince.

(Davomi keyingi sonda)

Boshlanishi 1-betda

Mazkur yilda hukumatimizning 2021-yil 10-fevralda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash bo'yicha "yo'l xaritasi" hamda 2021-yil 16-martda "Savdo, ishlab qurilish va xizmat ko'rsatish ob'ektlariga nom berishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi. Ushbularga muvofiq endilikda tashqi yozuv, peshlavha, reklama va e'lonlar hamda tovar va xizmat ko'rsatish belgilari davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiq keladigan, milliy qadriyatlarga mos keladigan tarzda qonun talablariga muvofiq ravishda nomlanishiga alohida e'tibor beriladi. Ayni paytda "Nom.uz" sayti ishlab turibdi. Unga kirib bermalol nom tanlash mumkin.

Ushbu hukumat qarorlari asosida 2023-yilning 1-yanvaridan boshlab, respublika hududida to'liq lotin alifbosi joriy etiladi. Vaqtli matbuot ham lotin alifboga o'tmoqda. Xususan, viloyat hokimligi gazetasi "Zarafshon" yil boshidan beri yangi alifboda chop etilayotganligini mamnuniyat bilan qayd etishi lozim. - deb o'ylaymiz.

2022-yil 9-sentabridan "Reklama haqida"gi qonunga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq reklama ishlari davlat tilida, zarurat tug'ilganda uning mazmuni saqlangan holda kichik harflar bilan boshqa tilda berilishi belgilab qo'yildi.

Hukumatimizning mazkur qarorlarini amalga oshirish uchun joylarda tushuntirish ishlari amalga oshirilmoqda. Ammo "sholi kurmaksiz bo'lmanidek" ushbu qarorlar ijrosini ta'minlashni turli bahonalarda bilan paysalga solayotgan fuqarolar ham onda-sonda bo'lsa-da, uchrab turadi. Menga kasbim taqozosi bilan "Davlat tili haqida"gi qonun talablari asosida Samarqand shahri ko'chalaridagi turli tillardagi yozuvlarni lotin alifbosiga almashtirish bo'yicha tuzilgan ishchi komissiyasi tarkibida ishtirok etishimga to'g'ri kelib qoldi.

Shahrimizda davlat siyosati va hukumat qarorlaridan yaxshi xabardor va uning ijrosini o'z vaqtida amalga oshirishga amal qilib kelayotgan fuqarolarimiz ham talaygina. Ammo buni tushunib yetsa ham, amalga oshirishni xohlamaydigan ba'zi shaxslar ham oramizda borligidan afsuslanib ketasan kishi. Ba'zilariga davlat tili to'g'risida gapirangiz, ensasi qotadi-da, qachondan beri o'zbekcha yoziladigan bo'ldi?, - deydi. Siz hali ham sobiq Ittifoq fuqarosimisiz yoki Rossiyanimi? - desangiz, darrov sergak tortadi-da, yo'q, O'zbekiston fuqarosiman, - deya javob beradi.

Go'sht do'konigizga "Maco"dan ko'ra "Go'sht" - deb yozsangiz ma'qul emasmi? - desangiz. Do'kon egasidan hamma

DAVLAT TILIGA E'TIBOR - MILLATGA E'TIBOR

shunday yozyapti-ku, - degan javob olasiz. Tovuq go'shti sotuvchisiga: "Куриный дом"dan ko'ra "Товуқ go'shti" shaklida yozganingiz ma'qul emasmi? - degan savolingizga u o'zbekcha yozsak kulgili bo'ladi-da. O'zingiz ham bir o'ylab ko'ring, kulgili-da, deb savolimizga e'tiroz bilan javob beradi. Men bir oz ehtirosga berilib, 50 milliondan ortiq kishining ona tili bo'lgan o'zbek tili qachondan beri kulgili bo'lib qoldi, uka! Gapni o'ynab bo'lsa ham, o'ylab gapirib, deysiz bilan cheklandim, xolos.

Fikri tor, dunyoqarashi eski mafkura bilan shakllangan kishiga nimani ham tushuntirib bo'lardi? Yoki sataroshga: "Nega

kuni o'sha do'kon sohibi menga telefon qilib, so'kina boshladi. Ishchi guruh a'zolari-yu, hokimlikdagilar ham qolmadi. Telefon raqamimni unga kim bergan? Albatta, uchastka noziri bergan. Chunki biz mazkur hududga kelayotganimizda, u bilan bir nechta marta qo'ng'iroqlashgan edik-da.

Xizmat kiyimida O'zbekiston gerbi aks etgan yosh yigitchada na Vatan g'ururi, na Vatan tili, na davlat tiliga, xususan, o'z ona tilisiga bo'lgan hurmat va unga ehtirom ko'rsatishdek tuyg'udan zarracha ham yo'q. Mamlakatimizda bo'layotgan jiddiy islohotlardan, Konstitutsiyamizdagi o'zgarishlardan xabardor ham emas. Bunday kishilar faqat

bo'lgan masalalarni hal etish borasida o'zimizni tajribamdan kelib chiqib, tavsiyalarni berishga harakat qildim.

Ba'zilar qahvaxona yoki restoranlar peshlavha yoki tashqi yozuvining noto'g'ri yozilganiga e'tiroz bildirsangiz, o'zbekcha-ku, kafe "Юлдюз" yozganman, deydi. Bu birinchidan, o'zbek tilining jumla qurilishiga to'g'ri kelmaydi, ruscha qolip, o'zbekchasi "Yulduz" qahvaxonasi shaklida bo'lishi lozim. Ikkinchidan, o'zbek tilida kafe emas, qahvaxona bo'ladi.

Yoki "Бек шашлык" "Доставка" singari peshlavha va ko'rsatkichlarga ko'zingiz tushib qoladi. Shashlik so'zi og'zaki so'zlashuv nutqiga xos bo'lib, buning ustiga o'zbek tilining krill alifbosida "ы" harfi yo'q. "Шашлык" - adabiy tilda kabob, deb nomlanadi. "Доставка" so'zini "Yetkazib berish", "Бек шашлык"ni esa "Бек kabobi" yoki "Бек kabobi" qahvaxonasi shaklida berish maqsadga muvofiqdir.

Shahar tugul uzoq tumanlarda ham "Мы открылись" shaklida yozuvga ko'zingiz tushadi. Baraka topkur "Ishni boshladik", "Faoliyatimizni boshladik" tarzida yozsang bo'lmaydi, deging keladi.

Ba'zilar esa ruscha jumalarni o'zbekchaga qanday yozsak bo'ladi, - degan savol bilan ham murojaat qilishadi. Masalan, "Ремонт глушитель все автомарки, автогенная"ni "Barcha rusumdagi avtoulavlar motori ovozi rostdalash va avtopayvand ishlari", "Мотор ходовой замена масла"ni "Avtoulav motori va yurish qismini ta'mirlash, moyini almashtirish" shaklida berish mumkin.

"Go'zallik saloni"ni ochgan xonimlar ham o'zbekchasini topa olmayapmiz, deb qolishadi. Nazarimizda, ularni shunday yozish durustroqqa o'xshaydi. Go'zallik saloni mijozlariga quyidagi xizmatlarni ko'rsatamiz: sochni tekislash, sochni qirqish, sochni turmaklash, yuzni pardozlash, tirnoq bo'yash va hokazo.

Xullas, "qidiring imkon topadi" - deganlaridek, vatanparvar kishi imkon darajasida ruscha - baynalmilal so'zlarning muqobillarini topishda ham soha mutaxassislari va tilshunoslar bilan maslahatlashgan holda hukumatimiz qarorlariga og'ishmay amalga qilishga intiladi. Xohishi bo'lmagan, eskicha fikrlaydiganlar esa bahona izlash bilan ovvora bo'lib yuraveradi. Lekin har bir O'zbekiston fuqarosining ko'nglida har doim VATAN degan tuyg'u doimo jo'sh urib turishi lozim. Ana shundaygina har qadamda milliylik sezilib turadi.

Murodqosim ABDIEV, Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazining Samarqand bo'limi rahbari.

XXI ASR VABOSI

Boshlanishi 1-betda

3.Shundan 50 daqiqasi uxlash oldidan telefon titkashga sarflanadi.

4.Smartfon egalaringning 80 foizi uyg'ongandan keyingi 10 daqiqa ichida undagi xabar va bildirishnomalarni tekshiradi.

5.Odamlarning 52 foizi 24 soatdan oshiq vaqt davomida telefonidan ajralmaydi.

6.Kishilarning 43 foizi o'z smartfonini qimmatbaho mulk deb hisoblaydi.

7.Smartfon egalaringning 54 foizi uning akkumulyatorida quvvat 20 foizdan kamayganida vahimaga tushadi.

8.Foydalanuvchilarning 40 foizi rulni boshqarayotib ham smartfondan foydalanadi!

9.So'ralganlardan 70 foizi smartfonini, albatta, o'zi bilan hojatxonaga olib kiradi.

10.Kishilarning 47 foizi hatto uchrashuvga chiqqanida ham telefoniga qarashni kanda qilmaydi.

11.Odamlarning 62 foizi smartfonini yonida olib uxlaydi.

12.So'ralganlarning 48 foizi o'zida smartfonga tubelik omatlari mavjudligini tan olgan.

Xo'sh, siz ham yuqoridagilar qatoriga kirasizmi? O'zingizni o'zgartirmoqchimisiz? Albatta, buning yechimi bor. O'zbekiston Respublikasi mimonika federatsiyasi direktori bo'lishiga qaramasdan Davronbek Turdiyev yoshlarga bu borada ham o'zining bilim va ko'nikmalarini ulashmoqda.

Bunga misol tariqasida aytish mumkin, u 30 kunlik jonli darslariga start berdi va o'z ichiga miya qonunlari, iroda, intizom, dangasalikni yengish kabi bir qancha mavzularni qamrab oldi. Ammo bu darslarga pul sarflab qo'yib ham o'qimaydiganlar yo'q emas. Sizlarga esa o'zim o'rgangan usullarning bir qismini bo'lishmoqchiman.

Daslab telefonsiz uxlashni mashq qilish, so'ngra do'konga chiqqanda, kechki sayohat vaqti va boshqa holatlar orqali telefonidan uzqolishni mashq qilish hamda kun davomida qancha daqiqa foydalanayotganingizni yozib, uni kamaytirishga harakat qilishingiz muhim.

Demak, biz nafsimizni tiyib, o'z vaqtimizni isrof qilmasak, barchasiga erishamiz. Xulosa shundaki, bizning ertangi kelajagimiz bugungi qilgan harakatlarmizdadir!

Sherbekjon SHOMURODOV, Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

VATANIM ONAM!

Seni Jannatlarga qiyoslab yurtim, Hurmating joyiga qo'ya oldikmi? O'sha Jannatdagi farishta misol, "Xalqim" degan inson bo'la oldikmi?

Vatanni sevmoklik iymondan erur, Bu jumla mag'zini tuya oldikmi? Sen bizni bolangdek asragan kabi, Biz seni "onam" deb suya oldikmi?

Ko'ksingga bosh qo'yib yig'ilasak nogoh, Bag'ring haroratini seza oldikmi? Sening ravnaqingga jonni kuydirsak, Bir kunlik qarzimiz uza oldikmi?

Shamollar uchirsa tuproqlaringni, Kaftingga bir daraxt eka oldikmi? Urush bo'ronida uchgan ro'moling, So'kilgan choklarin tika oldikmi?

Xulkar NOSIROVA, Samarqand shahar 15-maktab 11-sinf o'quvchisi.

SAMARQAND

Samarqandning yo'llari, Uzoq ekan cho'llari, Olma-uzum mevalari, Samarqandim Samarqand.

Ulug'bekning Vatani, Bibixonim maskani, Amir Temur diyori, Samarqandim Samarqand.

Insonlari ajoyibdir, Obidalar shahridir, Mehmondo'stlik g'aroyibdir, Samarqandim Samarqand.

Yulduzlarga boydir, Osmoni ham musafodir, Tinchlik surgan ona shahrim, Samarqandim Samarqand.

Olmlari ko'pdir uni, Ulug'bek-u Temurlarin, Bibixonim o'ylab topgan, Samarqandim Samarqand.

Ibrohim SAYIDBURXONOV, Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

BIZ O'QUVCHILARIMIZNING VATANIMIZGA MUNOSIB FARZAND BO'LIB ULG'AYISHIDA O'Z MEHNATIMIZNI AYAMAYMIZ

Dastlab akademik litseylar faoliyatidagi rivojlanishdan boshlasak. Birgina Samarqand davlat chet tillar instituti misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrda "Akademik litseylarni oliy ta'lim muassasalari tasarrufiga o'tkazish to'g'risida"gi qarori asosida Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi nomiga o'zgartirilib Samarqand davlat chet tillar instituti tasarrufiga o'tkazilgan.

Akademik litsey quvvati 720 o'ringa mo'ljallangan. Akademik litsey o'quv binosida 44 ta o'quv xonalari: jumladan, 1 ta kimyo, 1 ta fizika, 1 ta biologiya, 3 ta kompyuter sinfi (informatika xonasi), (shundan 2018-yil 1 ta kompyuter-lingfon xonasi tashkil etilgan), 150 o'rinli faollar zali, 12x24 xajmdagi 1 ta sport zal ham mavjud.

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ham bugungi kunga qadar yuzlab o'quvchilarga ta'lim berib kelmoqda. Hozirgi kunda akademik litseyda 350 ga yaqin o'quvchilar tahsil olib, ulardan qariyb 3 dan 2 qismi muddatdan oldin o'qishga qabul qilindi.

O'quvchilarning 190 nafari milliy OTMlarga, 68 nafari xorijiy OTMlarga muddatdan oldin qabul qilindi. O'quvchilar uchun akademik litseyda barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, akademik litsey moddiy-texnik bazasi har yili yangilanishi, bundan tashqari akademik litseyda o'quvchilarni ko'llab-quvvatlash va o'qishga

bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida stipendiyalar joriy qilingan. Bular "Rektor stipendiyasi" hamda "Akademik litsey ixtixori" stipendiyalaridir. 2022-yil davomida akademik litsey o'quvchilarining 96 nafari chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi sertifikatlarni qo'lga kiritgan.

Litseyda o'quvchilar uchun bir qancha to'garaklar tashkil etilgan bo'lib, bular musiqa, sport, axborot texnologiyalari kabilardir. Akademik litseyda 7 ta til chuqurlashtirilib o'rgatiladi, bular ingliz, rus, nemis, koreys, xitoy, yapon hamda arab tillaridir. Akademik litseyda xorijiy til mashg'ulotlari maxsus sertifikatga ega bo'lgan respublika hamda xorijiy yuqori malakali o'qituvchilar tomonidan olib boriladi.

Asosiy shtat birligidagi 14 nafar chet tillari o'qituvchilarining barchasi chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lib, ulardagi jami sertifikatlar soni 16 tani tashkil qiladi.

14 nafar chet tili o'qituvchilariga 50% ustamalar to'lab beriladi. Umumta'lim fanlar kafedrasida o'qituvchilari tomonidan yil davomida:

"Scopus" va "Science of direct" bazasidagi jurnallarda 1 ta, xorijiy ilmiy jurnallarda 4 ta, OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda 1 ta, mahalliy jurnallarda 4 ta, xalqaro ilmiy konferensiyalar to'plamlarida 1 ta, respublika ilmiy konferensiyalar to'plamlarida 9 ta maqolalar chop etildi.

2020-2021 o'quv yili o'quvchilarining o'qishga kirish ko'rsatkichi 73 foiz bo'lib, shundan 29 foiz xorijiy oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan bitiruvchilardir.

2021-2022 o'quv yili o'quvchilarining o'qishga kirish ko'rsatkichi esa 86 foiz bo'lib, shundan 30 foizga yaqini xorijiy oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan. Kelajakda o'qishga kirish ko'rsatkichini 95 foizga yetkazishni reja qilganmiz.

2022-2023 o'quv yili yanvar oyi holatiga ko'ra jami o'quvchilar soni 333 nafar bo'lib, shundan 1-kurslar 175 nafar, 2-kurslar 163 nafarni tashkil qiladi.

2022-2023 o'quv yili davomida akademik litsey o'quvchilari 96 ta chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi sertifikatlarni qo'lga kiritgan bo'lib, shundan 46 ta xalqaro, 50 ta mahalliy sertifikatlar bo'ldi.

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyida ta'lim jarayonlarida faol ishtirok etib kelayotgan, barcha fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirib borayotgan, darslardan tashqari mashg'ulotlar hamda jamoat ishlarida faol ishtirok etuvchi, ijtimoiy faol iste'dod egasi bo'lgan, fan olimpiadalarini, respublika hamda xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishgan, iqtidorli o'quvchilarini moddiy rag'batlantirish, kelgusidagi o'qishlarida yangi muvaffaqiyatlarga erishishga ko'maklashish maqsadida akademik litseyda



bir qator salmoqli ishlar qilindi.

Litseyda o'quv xonalari zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan bo'lib, kompyuterlar, multimedia, smart televizorlar, whiteboard, audio va videotexnika, ta'lim jarayonida barcha fanlarga oid bo'lgan elektron darsliklar, multimedia dasturlari, audio, video va proyeksion materiallaridan foydalaniladi. Bundan ko'rinib turibdiki, endilikda akademik litseylarga e'tibor avvalgidan kuchliroq, o'quvchilarning OTMlarga kirish ko'rsatkichlari ham juda yuqori. Bundan tashqari akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning dunyo qarashi ham kengayib, har tomonlama mukammal, raqobatbardosh bo'lib shakllanmoqda. Biz o'quvchilarni Vatanimizga munosib farzand bo'lib ulg'ayishida o'z mehnatimizni ayamaymiz.

Zokir BOZOROV,
SamDCHTI Akademik litseyi
ijrochi direktori.

INSON QADRINI ULUG'LASH ENG OLIY SAODATDIR

Bilamizki, har qanday kishilik jamiyatining asosi mehr va oqibatdir. Insonlar bir-biriga mehr ko'rsatadi va natijada oqibatini ko'radi. Bu ikki jihat o'zaro bog'liq bo'lgan ega yuksak axloqiy tuyg'u hisoblanib, avvalo, oilada shakllanadi. Oila esa jamiyatning bir bo'g'inidir.

Inson mehr-oqibatni, avvalo, o'z ota-onasidan oladi, o'rganadi va yaqinlariga ulashadi. Mehr-muruvatsiz o'sgan bolaning kelajagida boshqalarga nisbatan inson-

parvarlik tuyg'ularining bo'lishi ham dardmoh.

Ta'kidlash joiz, insonlarga yaqinlari tomonidan e'tibor va mexr-muhabbatning ko'rsatilishi vaziyatni ijobiy tomonga, ya'ni barkamol avlodning shakllanishiga turki bo'ladi.

Oila, kattalarga bo'lgan hurmat, kichiklarga izzat kabi qadriyat va tushunchalar bugungi kunda bizdan yiroqlashmoqda desak,

mubolag'a bo'lmaydi. Biroq bundan bir necha yil oldin insoniyat va ko'rinnas dushman o'rtasida ayovsiz urush bo'lib o'tgani va haligacha davom etayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Sahovatpesha xalqimiz bir yoqadan bosh chiqarib, o'zini shu yurtning bir bo'lagim deya, bir-birining holidan xabar olgan holda faollik ko'rsatdi. Bu davrda nafaqat bir-biridan uzoqlashib ketgan oilalar, ota-ona va farzand o'rtasidagi insoniy rishtalar

qayta bog'landi, dunyodagi ko'plab jamiyatlarda va mamlakatlarda ham bir-biriga yaqinlashdi. Ezgulikka, sahvotga xayr-ehson qilishga imkon qadar harakatda bo'lishdi.

Afsuski, bu ayovsiz yov oxirigisi bo'lmadi, dunyoning turli hil chekkalarida turli xil tabiiy ofatlar ham davom etib keldi. Suv toshqinlari, yong'inlar va hattoki zilzilalar tufayli insoniyat halokatga uchrarmoqda. Bu tabiiy ofatlardan tasavvur qilib bo'lmas darajada jabr ko'rgan qardosh

xalqlarimizda kuzatilayotgan yer qimirlashini nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi o'zingiz guvoh bo'lgan hodisalar natijasida dunyo aholisi o'ziga yarasha xulosa chiqardi. Insoniylik tuyg'ulari, mehr-oqibat tushunchalari insonlar qalbidan qayta joy olmoqda.

Dilnura ISROILOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

MAQOLA –TAHLILIY JURNALISTIKANING YETAKCHI JANRI SIFATIDA

E'tibor berganimsiz, odamlar gazetada chiqadigan materiallarning hammasini maqola deb o'ylashadi. Qanday shakl yoki ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar, jurnalistik materialning gazetada chop etilishi, "maqola" degan so'z bilan bog'liq bo'lgan. "Maqola" degan so'zning ma'nosi "ma'qol"dan kelib chiqqan bo'lib, "ma'qol" so'zi arabcha "ma'qul" degan so'zdan olingan (lotincha "articulus") bo'lib, "bo'g'in", "a'zo", "qism" degan ma'nomlarni anglatadi.

Demak, bunga sabab jurnalistik material, ma'lum hajmdagi matn gazetada sahfasiy bir qismi, ustuni, joyini egallaydi. Jurnalistikada esa maqola janridir. Maqola – publitsistikaning eng asosiy janrlaridan biri bo'lib, ijtimoiy hayotdagi ma'lum voqea, hodisa, jarayon, vaziyat, xatti-harakatlarining muayyan jihatini aniq fakt va dalillar, fikr asosida tahlil qilish orqali yoritiladigan jurnalistik asardir. Jamiyatdagi ma'lum voqea hodisalariga nisbatan aniq faktga va isbotga asoslangan jiddiy fikrlarni rivojlantirish tufayli muallifning erishgan natijalariga asoslangan xulosalaridir.

O'zbek milliy matbuotining yirik namoyondalaridan biri bo'lgan M.Behbudiy bundan yuz yildan ziyod vaqt avvalida, aniqrog'i, 1913-yilda asos solgan "Oyna" jurnalining birinchi sonida "Ikki til emas, to'rt til lozim" sarlavhali maqolasida muammo mahalliy aholining turmush sharoitidan kelib chiqqan holda qo'yilgan edi. Maqolada ko'tarilgan ushbu mavzu dolzarbligi nuqtayi nazaridan hozirgi sharoitda ham ahamiyatlidir.

Maqolada ijtimoiy hayot hodisalarini chuqur tahlil qilinib, nazariy va ommaviy jihatdan umumlashtiriladi, davlat siyosati, iqtisodiyot, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar, ilg'or ish tajribalari ommalashtiriladi, xalq xo'jaligidagi nuqsonlar tanqid qilinadi.

Matbuotda bosh maqola, nazariy va targ'ibot maqola, muammoli maqola keng qo'llaniladi. Bosh maqola (yoki tahririyat tomonidan yozilgan maqola)

tahririyatning eng mas'uliyatli maqolasi bo'lib, unda ichki va xalqaro hayotga doir muhim masalalarni o'quvchilar ommasiga yetkazish vazifasi qo'yiladi. Bunday maqola muayyan masala yuzasidan yo'l-yo'riq ko'rsatishi, mavjud kamchiliklarni ochib tashlashi, har bir ishning asosiy yo'lini belgilab berish lozim.

Prezident farmonlari, Oliy Majlis qonunlari, Vazirlar Mahkamasidan qabul qilinadigan davlat va hukumat hujjatlari, qarorlari, qonunlari davrning dolzarb masalalari bosh maqolada ochib beriladi. Nazariy maqola va targ'ibot maqolaning asosiy vazifasi mustaqillik, milliy g'oya, istiqloq mafkurasi asoslari va prinsiplari; ilmiy maqolaning vazifasi fan, madaniyat, texnika yutuqlarini tushuntirish, ommalashtirish, o'quvchining g'oyaviy, ilmiy saviyasini oshirishdan iborat. Muammoli maqola munozara va bahslashuv mazmunida bo'lib, unda biror masala yuzasidan muallif o'z qarashlarini o'rtaga tashlaydi.

O'zbekistonda maqola janri tarixi, asosan, "Turkiston viloyatining gazetasi" bilan bog'liq. Unda ijtimoiy-siyosiy hayotning turli sohalari o'z ifodasini topgan (Furqat, Ibrat, Hakimjon va boshqalar). Keyinchalik taraqqiyotparvar o'zbek milliy matbuotida Hamza, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy va boshqalar o'z maqolalarini bilan ishtirok etishgan. Hozirgi ommaviy axborot vositalarida maqolaning hamma turlarida materiallar berib boriladi. Maqola bu dolzarb mavzularni yorituvchi nashrdir. Maqola islohi keng ma'noda gazeta, jurnal, radio, televideniya, shuningdek, to'plamlardagi ilmiy asarlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Maqolalar ilmiy yoki publitsistik uslubda, adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilingan holda yoziladi. Maqola yozishda maqolaning mavzusini belgilash va unga sarlavha tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolaning sarlavhasi qisqa, lekin e'tiborni jalb qiladigan, va albatta, maqolaning bosh mavzusini yoritib beradigan bo'lishi lozim.

Mafituna JO'RAYEVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

BIZ – VATANNING KELGUSIMIZ



Xabaringiz bor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Bu – yoshlarni madaniyat, san'at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandlegini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga oladi.

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoitlar yaratilgan. Shuningdek, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yil illatlarga qarshi immunitet ham shunchalik kuchli bo'ladi.

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltiril-

gan.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarini tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi. Prezidentimizning "Biz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun – yo hayot yo momot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan so'zlarini ko'p bora eshitganmiz.

Biroq unga e'tibor qilish u yoqda tursin, ko'p hollarda bu da'vatning mohiyatini va ahamiyatini tushuntirib ham berolmaymiz. Boshqacha aytganda, ushbu tizimning sifati bugungi va ertangi hayotimiz darajasini belgilashi kerak. Bu borada milliy ta'lim-tarbiya tizimini shakllantirishda bir omil borki, uni ro'yobga chiqarish uchun faqat istak, ma'lag', vaqtning o'zi kifoya emas.

Shuningdek, Samarqand davlat chet tillar instituti Roman-german tillari fakultetida ham 5 ta muhim tashabbus doirasida to'garaklar tashkil etilgan. Bunda har bir tashabbus kesimida talabalar o'z iqtidoridan kelib chiqib to'garaklarga jalb etilgan.

Ta'kidlash joiz, ko'rsatkichlar shunchaki raqamlardan iborat ma'lumotlar emas, bu ko'rsatkichlar rivojlantirish uchun, ulkan davlat uchun omil bo'ladi. Bu islohotlar bizga har bir oila o'z farzandini tarbiyalash vaqtida o'sayotgan, fikr yuritayotgan, harakatchan, intiluvchan farzandi uchun ham ruhan ham jismonan yordam bersa, yurtimiz shu farzandning kelajagi uchun barcha ishni qilishga tayyorligini ko'rsatmoqda.

Zuha TOSHPLOVATOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

DUNYO XABARLARI

O'ZBEKISTONDA XUSUSIY UYLARGA QUYOSH BATAREYALARINI O'RNATISH QANCHAGA TUSHADI

Solara menejeri Alasbek Do'smuxamedovning so'zlariga ko'ra, konditsioner, televizor, yorug'lik, kompyuter, router va boshqa elektr jihozlari o'rnatilgan 3-4 xonali odatdagi uy 5 kilovatt elektr energiyasini sarflaydi. Uning ehtiyojlarini qondirish uchun bir xil quvvatga ega quyosh stantsiyasi kerak.

Panellarning maydoni 22-23 m², o'rnatish narxi esa 57,5 mln.so'mni tashkil qiladi.

Korxonada mutaxassislari loyiha tuzib, 15 ish kuni ichida quyosh stantsiyasini o'rnatib, bog'laydi. Tomning joylashuvi va nishabiga qarab, agar kerak bo'lsa, quyoshga yo'nalish optimal bo'lishi uchun metall truss payvandlanadi.

Shu bilan birga, to'lov shartnomasi tuziladi. Imtiyozlar mumkin: uch yilga bo'lib-bo'lib to'lash (enerjiamarket.uz saytida ro'yxatdan o'tish shart) yoki "Mikrokreditbank" va "Agrobank"dan 15 foizli 5 yil muddatga maqsadli imtiyozli bank krediti.

Shahar tarmog'iga ortiqcha elektr energiyasini qaytarish uchun siz yangi turdagi hisoblagichni o'rnatishingiz kerak, unda tarqatish zonasini xodimlari maxsus funktsiyani o'rnatadilar. Ishlab chiqarilgan va davlat hisobiga o'rnatilgan har bir kVt/soat uchun aholiga 1000 so'mdan to'lanadi.



Changni tozalash katta muammo emas. Solara mutaxassislari mikroqilm tizimini o'rnatib, ular, kerak bo'lganda uni yoqishlari va panellarni yuvishlari mumkin.

Panellar shisha bilan himoyalangan va agar shisha singan bo'lsa, bu stantsiyani ishlashga ta'sir qilmaydi.

Hozirda korxonada tomonidan qishloq joylarda 15 ta xususiy uyning tomiga panellar o'rnatilib, ular, masalan, sug'orish nasoslarini quvvat bilan ta'minlaydi. Quyosh elektr stantsiyasining, shuningdek, yirik stantsiyalarning ishlashi uchun kafolat 25 yil.

BILL GEYTS MUVAFFAQIYATGA ERISHISH UCHUN 5 TA MASLAHAT BERDI

Microsoft yaratuvchisi hayotda katta muvaffaqiyatlarga erishgan shaxsning namunasidir. Bularni tinglash kerak, bularni tekislash kerak.



Bill Geys - bu maslahat va tavsiyalari uchun odamlar ko'p pul to'lashga tayyor bo'lgan odam. Ammo u ularni bepul beradi va uning ko'plab tavsiyalari odamlarga o'zlariga ishonishga va orzulariga ergashishga yordam beradi.

1. Idishlarni yuving. Bill Geysning fikricha, idishlarni yuvish yaxshi uyqu uchun ajoyib marosimdir. Va u buni har kuni kechqurun qiladi. Chunki yaxshi uyqu - samarali kunning kalitidir. Ushbu oddiy va mexanik faoliyat miyani bo'shshatirishga va uni asta-sekin uyquga tayyorlashga imkon beradi, shunda ertalab bosh yangi bo'ladi va kun yanada muvaffaqiyatli bo'ladi.

DASTLABKI HISOB-KITOBLARGA KO'RA, NAVOIY IESDA O'RNATILAYOTGAN QUYOSH PANELLARI ORQALI YILIGA O'RTACHA 1,8 MLN KVT SOAT ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRILADI.

Qayd etilishicha, issiqlik elektr stantsiyalarida o'z ehtiyojlarini uchun zarur bo'lgan elektr energiyasini muqobil energiya manbalari yordamida ishlab chiqarilmoqda.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, Navoiy IESda o'rnatilayotgan quyosh panellari orqali yiliga o'rtacha 1,8 mln kvt soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

Buning natijasida yiliga 400 ming kub metr tabiiy gaz iqtisod qilinishiga erishiladi.



"KAZTRANSOYL" O'ZBEKISTONGA ROSSIYA NEFTINI JO'NATISHNI BOSHLADI

Rossiya nefti Omsk – Pavlodar – Chimkent – Shag'ir neft quyish stantsiyasi yo'nalishi bo'yicha Qozog'iston hududi orqali O'zbekistonga jo'natiladi.

Rossiya nefti Omsk – Pavlodar – Chimkent – Shag'ir neft quyish stantsiyasi yo'nalishi bo'yicha Qozog'iston hududi orqali O'zbekistonga jo'natiladi.

Neftni tashish Qozog'iston Energetika vazirligi tomonidan tasdiqlangan neft yetkazib berish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

2023 yilda "KazTransOyl" AJ magistral neft quvurlari tizimi orqali O'zbekistonga Rossiya nefti tranzitining kutilayotgan hajmi 250 ming tonnani tashkil etadi.

O'tgan yilning dekabr oyida Qozog'iston Rossiya neftining O'zbekistonga tranziti uchun tarifni oshirgandi. Qozog'iston hududi orqali O'zbekistonga tranzit qilish maqsadida Rossiya neftini tashish xizmati tarifi 1 tonna uchun (QQSsiz) 27,9 AQSH dollari

Internet materiallari asosida tayyorlandi.

INTELLEKT

Muassis:
Samarqand davlat chet tillar instituti

Bosh muharrir: Ilhomjon To'xtasinov

Tahrir hay'ati:
Fazliddin Ro'ziqulov (rais), Otobek G'aybullaev,
Shaxobiddin Ashurov, Otobek Yusupov,
Erali Rahmatov (a'zolar)

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasida 2020-yil 22-iyulda 09-15 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Gazeta «Intellect» gazetasi tahririyati kompyuterida sahifa-

landi. «Sherdor plyus poligraf» boshqarmasida chop etildi.
Korxonada manzili: Samarqand shahri, 140100, Ulug' Tursunov ko'chas 82-uy.
Qog'oz bichimi: A-2. Adadi: 1 000 Buyurtma: №

Bosishga topshirish vaqti:
Soat 18:00 da. 2023-yil 17-aprel.
Bosishga topshirildi: soat 19:10 da
Bahosi kelishilgan narxda
Tijorat material

Bosh muharrir o'rinbosari:
Asilbek Abduraimov
Nashr indeksi: 5588

Maqola va xabarlarda keltirilgan ma'lumotlar uchun muallif javobgar